

# Qayta ishlangan chiqindilardan tayyorlangan plastik qadoqlar bozori 2034-yilga borib 51,84 milliard dollarga yetishi mumkin

// 18.03.2025

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/qayta-ishlangan-chiqindilardan-tayyorlangan-plastik-qadoqlar>



Iste'mol chiqindilardan qayta ishlangan (PCR) plastik qadoqlarning jahon bozori 2024-yilda 19,35 milliard dollarni tashkil etdi. 2025-yilda bozor 21,28 milliard dollarga baholanmoqda va 2034-yilga kelib yiliga o'rtacha 10,4% o'sgan holda 51,84 milliard dollarga yetishi kutilmoqda.

Ushbu ma'lumotlar Precedence Research agentligining so'nggi tadqiqotida keltirilgan.

O'tgan yilda bozorning katta ulushi 35,52% bilan Shimoliy Amerikaga to'g'ri kelib, 6,23 milliard dollarni tashkil etgan. Xabarlariga ko'ra, atrof-muhit haqida xabardorlikning o'sishi va barqarorlik haqidagi xavotirlar AQSHda ekologik toza qadoqlash yechimlariga bo'lgan talabni oshirmoqda.

Bundan tashqari, plastik chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlashni rag'batlantirishga qaratilgan tartibga solish tashabbuslari bozorni shakllantirmoqda. Yevropa 24,41%, Lotin Amerikasi 6,06%, Yaqin Sharq va Afrika 3,42%, Osiyo-Tinch okeani mintaqasi esa bozorning 30,59 foizini egallaydi. Aynan Osiyo-Tinch okeani mintaqasi prognoz qilinayotgan davrda eng tez o'sishga ega bo'ladi.

**"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati**